



HARBIY XODIMLAR MULOQOTIDA IJTIMOIIY MUNOSABATLARNING AHAMIYATI

Kenjaeva Z.T.

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar
vazirligi akademiyasi o'qituvchisi*

Tanyanch so'zlar: ijtimoiy psixologiya, ijtimoiy munosabat, kompetensiya, kompetentlik.

Ключевые слова: социальная психология, социальное отношение, компетенция, компетентность.

Key words: social psychology, social attitude, competence, competency.

Резюме:

Ushbu maqolada harbiy xodimlar muloqot xulqida ijtimoiy munosabatlar ahamiyati yoritib berilgan. Harbiy xodimlar muloqot xulqida kasbiy xarakterini belgilab beruvchi muayan ijtimoiy markerlar shakllanib qolishi yoritib berilgan. "Kompetentsiya" va "kompetentlik" termilarini qo'llanilishi ko'rib chiqilgan. Harbiy xodimlarning muloqot madaniyati va salohiyati ijtimoiy turmush bilan uzviy bog'liq holda shakllanadigan layoqatlari tahlil qilingan.

Резюме:

В данной статье подчеркивается значение социальных отношений в коммуникативном поведении военнослужащих. Пояснено, что в коммуникативном поведении военнослужащих формируются определенные социальные маркеры, определяющие их профессиональный характер. Рассмотрено употребление терминов "компетенция" и "компетентность". Проанализированы культура общения и потенциал военнослужащих, которые формируются в неразрывной связи с общественной жизнью.

Summary:

This article emphasizes the importance of social relationships in the communicative behavior of military personnel. It is explained that in the communicative behavior of military personnel certain social markers are formed that determine their professional character. The use of the terms "competence" and "competency" is considered. The culture of communication and the potential of military personnel, which are formed in inextricable connection with public life, are analyzed.

Bugungi kunda ijtimoiy munosabatlar, aslida, insonning siyosiy munosabatlaridan tortib, uning shaxslararo munosabatlarini o'z ichiga olgan murakkab jarayon hisoblanadi. Masalan, interktsionizm vakillari uni shaxslararo o'zaro ta'sirning turlicha namoyon bo'lishi shaklida tushunsalar, ijtimoiy almashinuv nazariyasi tarafdorlari insonlarning bir-birlariga nisbatan talablari, kutishlari va manfaatdorliklarining o'zaro almashinuvi jarayoni sifatida tasavvur

qiladilar. Shunga o'xshash hozirda turli-tuman qarashlar mavjud bo'lib, ularning barchasini birlashtiradigan yagona g'oya – bu, odamlar o'rtasida sodir bo'ladigan o'zaro ta'sir hisoblanadi.

XXI asrning dastlabki yillaridan muloqot kategoriyasi psixologiya fanidagi markaziy kategoriyalardan biri hisoblanadi. So'nggi 20-25 yil ichida muloqot muammolari psixologiyadagi, ayniqsa, ijtimoiy psixologiyaning eng yirik tadqiqot predmetiga aylanib bormoqda.

Zotan, shaxslararo muloqot o'ta murakkab jarayon bo'lganligi uchun unga yagona to'g'ri ta'rifni berish juda mushkul. Shu bois, muloqot tushunchasi uning ayrim tomonlariga urg'u berish orqali ta'riflanadi. Xususan, harbiy xodimlari xizmat vazifalarini bajarishda fuqarolar bilan tez-tez muloqotga kirishadilar. Ular faoliyatining samaradorligi odamlar bilan muloqotga kirishish, psixologik aloqa o'rnatish qobiliyatlariga bog'liq. Kommunikativ xususiyatlar harbiy xodimlari kasb mahoratining muhim tarkibiy qismidir. Tinimsiz xalq ichida bo'lishi, hamda turli ijtimoiy guruh vakillari bilan muloqot qilishi natijasida harbiy xodimlari millat mentaliteti, iqtisodiy-ijtimoiy holatini juda yaxshi o'zlashtirib oladilarki, bu ularning asosiy vazifasi uchun muhim hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, to'xtovsiz bir ish bilan shug'ullanish natijasida ularning muloqot xulqida ham kasbiy xarakterini belgilab beruvchi muayan ijtimoiy markerlar shakllanib qoladi.

Darhaqiqat, harbiy xodimlar ijtimoiy vazifasi nuqtayi nazaridan o'zini jiddiy tutishga urinishi, har bir elementga diqqat bilan qarashi, ma'lum vaqt o'tgach, uning muloqot xulqiga ta'sir etadi. Shuning uchun harbiy hodimlar ishdan tashqari holatlarda (nonushta, maishiy tadbirlarda va hokazoda) ham jiddiy va kuzatuvchan kayfiyatda bo'lib qolishlari mumkin. Bunday kayfiyat ularni hushyor, shubhali nazar bilan qarovchi, kelgan kishi bilan rasmiy muloqotga kirishadigan stereotipga aylantirib qo'yadi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, dastlab amerikalik tilshunos N.Xomskiy tomonidan shaxsning til tizimi, til belgilari, ularni leksik-grammatik real vaziyatlarda qo'llanishiga oid salohiyatlarini tahlil qilish maqsadida ilmiy iste'molga olib kirilgan "kompetensiya" va "kompetentlik"ka (ingl. competence - qobiliyat) termini bugungi kunda psixologiya, pedagogika va sosiologiya sohalarida shaxsning turli faoliyatlariga baho berish vositasi sifatida keng qo'llanilmoqda [3].

Xususan, V. N. Kunitsinaning qo'llanmasida shaxsning muloqot madaniyati va salohiyati ijtimoiy turmush bilan uzviy bog'liq holda shakllanadigan layoqatlari:

1) operativlik – ijtimoiy tizim va tuzilmalarning o'zaro aloqasidan xabardor bo'lgan holda, vaziyatga tezlikda baho berish va uning yechimini topish;

2) orientasion – tuzulmalar haqida to'laqonli xabardor bo'lgan holda harakat yo'nalishini mo'ljallash;

3) verbal – fikrini og'zaki va yozma tarzda hamda vaziyatga mos holda aniq va tushunarli tarzda bayon qilish;

4) kommunikativ – muloqotning madaniy normalarga tayangan suhbatlashish;



- 5) etik – xalqning anʼanaviy odob-axloq nomlariga rioya qilish;
- 6) ijtimoiy-ruhiy – shaxslararo munosabatlarni oqilona hal qilish;
- 7) ego kompetentlik – oʻz dini, millati, jinsi, ajdod-avlodiga oid ustuvor va zayif jihatlar haqidagi bilim singari sotsial kompetensiyalar asosida belgilanadi [1, 110].

Sotsial kompetensiyaning ushbu tarkibiy qismlari harbiylarni faoliyatiga baho berishda ham muhim ahamiyatga ega. Binobarin, operativlik va oriyentasion kompetensiyalar komandirning oʻz bilim va tajribalariga tayangan holda, bir fikriy toʻxtamga kelishi (fikriy oriyentasiya) va zudlik bilan qaror qabul qilishi (operativlik) kabi eng muhim layoqatlarini taqozo etadi. Verbal, kommunikativ, etik, ijtimoiy-psixologik kompetensiyalar esa harbiylarning muloqot, ijtimoiy va madaniy layoqatlariga dahldor boʻlib, ular hamkasblar oʻrtasidagi yozma va ogʻzaki shakli, rasmiy va norasmiy muloqotlari, komandir – askar muloqotlariga oid kompetensiyalarini aks ettiradi.

Keltirilganlardan maʼlum boʻladiki, kompetensiya insonning shaxsiy (ruhiy), ijtimoiy, kasbiy faoliyatlariga xos qobiliyat, salohiyatiga baho berish vositasi boʻlib, kompetentlik deb yuritiladigan ushbu sifatlarni belgilashda uning lisoniy bilimi, nutq odobi va muloqot madaniyati orqali namoyon boʻladigan kommunikativ kompetensiyaga tayaniladi. Harbiylik faoliyatida ushbu kompetensiya harbiy etika va kasbiy masalalari bilan chambarchas bogʻliqdir.

K.F. Sedov kommunikativ kompetensiyani “nutqiy faoliyat va suhbat odobiga xos normalar hamda ijtimoiy munosabat meʼyorlariga rioya qilgan holda muloqot samaradorligiga erishish koʻnikmasi”, – deb taʼriflaydi [2,314]. Shuningdek, u kommunikativ kompetensiyani tarkiban “lisoniy (til), nutqiy, diskursiv, madaniy va ritorik” kompetensiyalardan tashkil topishini ham qayd etadi.

Xulosa. Shunday qilib, til muayyan jamiyat vakillari uchun umumiy ijtimoiy hodisa boʻlsa ham, uning maʼlum bir nutq vaziyati bilan bogʻlanishi subyektning iqtidori va ijtimoiy faoliyati bilan bogʻliqdir. Inson lisoniy faoliyatiga xos ana shunday obyektiv va subyektiv koʻrsatkichlar almashinuvini tilning “maʼlum ijtimoiy vazifa, kasb-hunarga ixtisoslashganligi bilan xarakterlanuvchi sotsial xoslangan nutq” lar misolida kuzatiladi [4, 283]. Harbiylarning nutqi va muloqoti ham ana shunday ijtimoiy-madaniy va kasbiy xoslangan turlardan biridir.

Adabiyotlar:

1. Куницына В. Н. Межличностное общение. Учебник. – СПб: Питер, 2001. – С. 110.
2. Седов К.Ф. Дискурс и личность: эволюция коммуникативной компетенции. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 314.
3. Хомский Н. О природе и языке. – М.: КомКнига, 2005.
4. Hakimov M. Oʻzbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fan. d-ri ... dis. – Toshkent: OʻzR FA TAI, 2004. – B. 283.